

BOSHLANG'ICH SINFLARGA MATEMATIKA O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARGA INDIVIDUAL YONDASHUV

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
Dotsenti **Mardanov Eshim Muratovich**
4-bosqich talabasi **Norqobilova Hilola Zohid qizi***

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarga matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarga individual yondashish orqali samarali natijalarga erishish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. individual yondashuv, bilish jarayoni, samaradorlik, mustaqillik, mantiqiy fikrlash, muvaffaqiyat

Keywords: individual approach, the process of knowing efficiency, sovereignty, logical thinking, success.

Ключевые слова: индивидуальный подход, процесс познания эффективности, суверенитета, логического мышления, успеха

"Individual" tushunchasi lotincha bo'lib, yakka tartibda yolg'iz va maxsus shug'ullanish ma'nolarini bildiradi. Bu jarayon shaxsga yo'naltirilgan o'quv va tadqiqot shakli bo'lib, unda har bir ta'lim oluvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etadi. Yakka tartibda shug'ullanish ta'lim oluvchilarni faollashtiradi, ta'lim beruvchilarning uslubiy yondashuvini kuchaytiradi.

Ta'lim jarayoniga ilk qadam qo'ygan kundanoq o'quvchilar bilimga chanqoq holda har bir fanni o'zlashtirishga bel bog'laydilar. Ammo o'quvchilarning umumiy intellektual qobiliyatlari har xil bo'lganligi uchun ular turli xil natijalar ko'rsatishadi. Kimdir yangi materialni juda tez o'rganadi, kimdir o'rganish uchun ko'proq vaqt talab qiladi, kimgadir o'zi o'qib tushuncha hosil qilish oson bo'lsa, kimgadir amaliyotda sinab yoki eshitish orqali qulay hisoblanadi.

O'quvchining dars jarayonida mavzularni o'zlashtira olmasligi ruhiy olamiga katta ta'sir qiladi. Maktab hayotiga e'tibor qaratsak ba'zi o'quvchilarning matematika faniga qiziqmasligiga asosiy sabab – bolalardagi bilish faoliyatining turlichaligi va matematik topshiriqlar ba'zi o'quvchilarga murakkab va tushunilishi qiyin bo'lishidir. Tushunmaslik natijasida o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish so'nadi, ularda dars davomida zerikish va befarqlik shakllanadi. Zerikish esa muvaffaqiyatli ta'limning asosiy dushmanidir. Suxomlinskiyning quyidagi fikrlariga e'tibor beraylik:

“Agar bolalarda bilim olishga ishtiyoq bo'lmasa, barcha rejalarimiz, izlanish va harakatlarimiz besamar ketadi “

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini tashkil etishda ham aynan har bir o'quvchining bilish qobiliyatlari darajasi, xotira, nutq, fikrlash jarayoni, qiziqishlaridan, ya'ni jismoniy va aqliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda individual yondashish ta'lim jarayonida samarali natija ko'rsatadi. Bunday jarayonni tashkil etishda o'qituvchi har bir bolaning bilim darajasidan kelib chiqqan holda individual topshiriqlar tayyorlashi lozim. Bu topshiriqlar osondan murakkabga qarab zanjirsimon, ya'ni bir – birini to'ldirgan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Har bir o'quvchining o'rganish tezligi va qobiliyatiga mos keladigan maxsus vazifalar oddiy masalalardan tortib murakkab misollargacha o'z ichiga oladi. Agar bola topshiriqni uddalay olmasa, uni e'tiborsiz qoldirmaslik zarur. U bilan individual shug'ullanish birgalikda yechim topish afzal. Ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun individual yondashuv muhim hisoblanadi.

6-10 yosh bolalarning fikrlash qobiliyatlarini shakllanishidagi ma'sul davr ekanligi psixologlar tomonidan isbot etilgan bo'lib, aynan biz boshlang'ich sinflarga individual yondashgan holda boshlang'ich matematik bilimlarni yuqori darajada shakllantirib, aqliy rivojlanishlariga ta'sirlarni kuchaytirsak matematik bilimlar tizimini egallashlari uchun poydevor yaratishga muvaffaq bo'lamiz.

Matematika darslarida individual ishlar yangi materialni o'rganishga tayyorgarlik ko'rishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilim, o'quv va malakalarni mustahkamlashda, bilimlarni nazorat qilishda amalga oshirilishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarga matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarga individual yondashish natijasida quyidagilarga ega bo'lishimiz mumkin

- O'quvchilarni mavzularni qay darajada o'zlashtirayotganligini nazorat qilish;
- O'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- O'quvchilarning bilish jarayonini rivojlantirish;
- O'quvchilarni mustaqil xulosa qilishga o'rgatish;
- O'quvchilarda o'ziga ishonch, muvaffaqiyatlarga loyqlik hissini tarkib toptirish;
- Fikrlash faoliyatini faollashtirib, o'tilgan materiallarni samarali o'zlashtirish;
- Materialni o'rganish sur'ati bilan bir qatorda uni, tushunish, anglash;
- Har o'quvchini o'z bilimini amalda namoyish eta olish;
- O'quvchilar ta'lim jarayonini o'rganishga tayyorgarlik darajasini aniqlash;
- O'qituvchining o'z faoliyatini baholashi.

-Individual yondashuv natijasida o'quvchilarga nafaqat mustaqil ishlay olish, bundan tashqari o'z fikrini namoyon eta olish qobiliyatini rivojlantirish imkoniga ham ega bo'lamiz. Bu jarayon haqida psixologlar quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi:

" Ta'lim-tarbiyadagi individual yondashuv bolani boshqalardan ajratib individual o'qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini

ilmiy asosda tushunishni anglatadi." Biz aynan matematika darslarida individual yondashar ekanmiz o'quvchilarni matematik bilimlarni egallashda qaysi bosqichda "sayozlik" sezayotganligini tushungan holda ularga pedagogik yordam ko'rsata olamiz. Bu jarayonda eng avvalo o'quvchi shaxsiyatiga e'tibor qaratish, ularning ruhiy, jismoniy holatlarini nazorat qilish juda muhim. O'quvchilarning individual faoliyatida mustaqillik va tashabbuskorlik ma'suliyatiga erishish, o'z faoliyatini nazorat qilish, tug'iladigan qiyinchiliklarini aniqlash va bartaraf etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday faoliyat turi natijasida o'quvchilarning bilim va mantiqiy fikrlash darajasi o'zgaradi. Shuning uchun ham dars davomida samarali o'quv faoliyatini tashkil etish boshlang'ich ta'limning alohida ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlardan biri hisoblanadi. O'quvchilarni yangi bilimlardan xabardor qilish ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun o'quv topshiriqlarning mazmunini, hajmini, izchilligini pedagogika hamda psixologiya fanlarining eng so'nggi yutuqlariga tayangan holda belgilab berish talab etilmoqda. O'ylaymanki, boshlang'ich sinf matematika darslarida individual faoliyat olib borish o'quvchilarning mustaqil fikrlash imkoniyatlarini kengaytirgan holda o'quv jarayonini rivojlantirishga asos bo'ladi. Turli tipdagi aqliy, amaliy, hamda o'quv ko'nikmalarini samarali rivojlantirish imkonini beruvchi individual yondashuv har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Buyuk donishmand Konfutsiy shunday deydi -

“Eshitganimni yoddan chiqaraman

Ko'rganimni eslab qolaman

Bajarganimni tushunib yetaman.”

Bu jumalardan xulosa chiqargan holda bolalarning matematik bilimlarni shakllantirishda aynan har bir o'quvchi amalda bajarib anglab yetishi uchun individual yondashish muhimdir. O'quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarni ochishlari, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, og'zaki va yozma xulosalar qilishga o'rganishlari individual yondashuvning asosiy maqsadidir. Individual yondashuv nafaqat sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ish faoliyatini yaxshilash, balki kuchli o'quvchilarni rivojlantirish uchun ham ahamiyatlidir. Individual ishlar orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida erkin fikr almashish yuzaga keladi va tortinchoq o'quvchilarda moslashuvchanlik qobiliyati tarkib topadi. Boshlang'ich sinflarga matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarga individual yondashishga ta'lim jarayonini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida qarash mumkin.


Mavzuyimizning amaliy ahamiyati sifatida 4-sinf darsligining IV qismidagi quyidagi topshiriqni ko'rib chiqaylik:

Uzunligi bir xil 6 ta cho'pni sindirmay, bukmay, to'rtta teng tomonli uchburchak yasash mumkinmi? Uchburchaklar to'la yopiq bo'lishi kerak


(118-dar,33-bet).

Ushbu topshiriqni bajarishda ilg‘or bolalarning ijodiy imkoniyatlari yuqori bo‘lsa,ba’zi o‘quvchilar individual yo‘naltirilgan holda yordam ko‘rsatishni talab etadi.Shuning uchun ham o‘qituvchi barcha o‘quvchilarni topshiriqni mustaqil bajarishlari uchun imkoniyat yaratishi lozim.O‘qituvchi o‘quvchilarning bajarishlari uchun faqat ko‘rsatmalar bersa maqsadga muvofiq bo‘ladi.Bu jarayon quyidagicha tashkil etilishi mumkin:


1.Har bir o‘quvchiga 6 tadan bir xil uzunlikka ega bo‘lgan cho‘plarni tarqatamiz:




2.Dastlab tekislikda 3 ta cho‘pdan foydalanib teng tomonli uchburchak hosil qilishlarini aytamiz:



3.So‘ngra hosil bo‘lgan uchburchakning har bir uchidan bittadan cho‘p joylashtirib, cho‘plarning uchini birlashtirishlarini aytamiz:



4. Natijada 4 ta teng tomonli, to‘la yopiq uchburchaklarga ega bo‘lamiz. Bu uchburchakli piramidani hosil qiladi:



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.H. Hakimova. Matematika o‘qitish metodikasi. Buxoro. 2021.
2. M.E. Jumayev, Z.G‘. Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2005.
3. E.M. Mardonov. Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi. Samarqand. 2021.
4. J. Sultanov, E.M. Mardonov, Q. Ostonov. Matematika. Samarqand. 2019.
5. E.M. Mardonov, Q. Ostonov. Matematik mantiq. Samarqand. 2018.
6. E.M. Mardonov. Maktabgacha ta’lim tashkilotida matematik o‘yinlarni tashkil etish. Samarqand. 2022.
7. Q. Ostonov, E.M. Mardonov, H. Toshqulov. Matematika tarixi. Samarqand. 2015.